

QASHQADARYO–SURXONDARYO MUSIQIY USLUBLARINI MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O‘RGATISH USLUBLARI

Musulmonova Adiba Nafasovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Musiqi ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Dostent v.b Nuriddin Azizov Malikovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qashqadaryo va Surxondaryo vohalariga xos musiqiy uslublarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularni musiqa madaniyati darslarida o‘qitishning samarali usullari yoritilgan. Ushbu hududlar musiqiy merosi xalqning ma’naviy qadriyatlari, urf-odatlari va madaniy an’analarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Maqolada o‘quvchilarga voha musiqasi namunalarini o‘rgatish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo musiqasi, Surxondaryo musiqasi, xalq musiqasi, musiqa madaniyati, baxshichilik san’ati, folklor, pedagogik metodlar, milliy meros, estetik tarbiya, musiqiy ta’lim.

O‘zbekiston xalq musiqasi ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, har bir hududning o‘ziga xos musiqiy an’analari va ijro uslublari mavjud. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari xalq musiqasi, baxshichilik san’ati, dostonchilik va an’anaviy ijrochilikning boy markazlaridan biri hisoblanadi. Ushbu hududlarga xos musiqiy meros yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda san’atga muhabbat va estetik didni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli musiqa madaniyati darslarida Qashqadaryo–Surxondaryo musiqiy uslublarni o‘rgatish masalasi dolzarb pedagogik vazifalardan biri sanaladi.

Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari musiqiy madaniyati o‘zining boy folklor merosi, baxshichilik an’analari va milliy cholg‘u ijrochiligi bilan ajralib turadi. Ushbu hududlarda doston ijrochiligi, termalar, xalq qo‘shiqlari va marosim musiqalari keng rivojlangan. Ayniqsa, baxshilar tomonidan ijro etiladigan dostonlar xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari va hayotiy qarashlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu bois ushbu musiqiy merosni ta’lim jarayoniga kiritish o‘quvchilarning milliy madaniyat haqidagi bilimlarini boyitadi. Musiqa madaniyati darslarida Qashqadaryo–Surxondaryo musiqiy uslublarni o‘rgatishda avvalo tinglash metodidan samarali foydalanish lozim. O‘quvchilarga baxshilar, xalq hofizlari va an’anaviy ijrochilar tomonidan ijro etilgan asarlar eshittiriladi. Tinglash jarayonida kuylarning ohang xususiyatlari, ritmik tuzilishi va ijro uslublari tahlil qilinadi. Bu usul o‘quvchilarda musiqani idrok etish va estetik baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur musiqiy

uslublarni o'rgatishda suhbat va muhokama metodlari ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi asarning yaratilish tarixi, mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati haqida ma'lumot beradi. O'quvchilar esa o'z fikr-mulohazalarini bayon etib, musiqiy asarning g'oyaviy mazmunini tahlil qiladilar. Bunday yondashuv darsning qiziqarli va mazmunli o'tishiga xizmat qiladi.

Amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar xalq qo'shiqlari va termalarni ijro etishga jalb qilinadi. Jamoa bo'lib kuylash, ritmik harakatlar bajarish va ayrim cholg'u asboblari bilan tanishish o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ayniqsa, do'mbira, dutor va boshqa milliy cholg'ularning imkoniyatlari haqida ma'lumot berish ularning milliy musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Qashqadaryo–Surxondaryo musiqiy merosini o'rgatishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ham muhimdir. Audio va video yozuvlar, elektron taqdimotlar, virtual ko'rgazmalar va multimedia vositalari orqali o'quvchilarga hududning mashhur ijrochilari va musiqiy an'analari haqida kengroq ma'lumot berish mumkin. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va mavzuning oson o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Musiqa madaniyati darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tarix, adabiyot va geografiya fanlari bilan bog'liq ma'lumotlarni musiqiy mavzular bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning voha madaniyati haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Natijada ular musiqani faqat san'at namunasi sifatida emas, balki xalqning tarixiy va madaniy merosining ajralmas qismi sifatida anglay boshlaydilar. Maktablarda baxshichilik kechalari, folklor festivallari va ijodiy uchrashuvlar tashkil etish ham ushbu musiqiy uslublarni o'rganishda samarali vosita hisoblanadi. Bunday tadbirlar o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirib, ularda milliy san'atga nisbatan hurmat va qiziqishni kuchaytiradi. Shu bilan birga, yosh avlodning milliy o'zlikni anglashiga va ma'naviy barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarining musiqiy merosi yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hududlarga xos bo'lgan kuy-qo'shiqlar, termalar va dostonlar xalqning hayot tarzi, urf-odatlarini hamda ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Musiqa madaniyati darslarida mazkur asarlar bilan tanishtirish o'quvchilarda milliy san'atga hurmat va qiziqishni kuchaytiradi. Natijada ular xalq og'zaki ijodi va an'anaviy musiqa namunalari haqida chuqurroq bilimga ega bo'ladilar.

Dars jarayonida baxshichilik san'ati namunalari foydalanish alohida pedagogik ahamiyatga ega. Baxshilar ijrosidagi dostonlar nafaqat musiqiy, balki tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyati bilan ham ajralib turadi. Ularning mazmunida mardlik, vatanparvarlik, sadoqat, insonparvarlik kabi yuksak fazilatlar targ'ib etiladi. O'quvchilar bunday asarlarni tinglash va tahlil qilish orqali milliy qahramonlar

obrazlari hamda xalqning ma'naviy qarashlari bilan yaqindan tanishadilar.

Qashqadaryo–Surxondaryo musiqiy uslublari o'rgatishda loyihaviy ta'lim metodidan foydalanish ham yaxshi samara beradi. O'quvchilarga ma'lum bir baxshi, xalq hofizi yoki musiqiy an'ana haqida mustaqil izlanish topshiriqlari berilishi mumkin. Ular to'plagan ma'lumotlarini taqdimot, referat yoki ijodiy chiqish shaklida namoyish etadilar. Bu usul o'quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish olib borish va ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Musiqqa madaniyati darslarida mahalliy ijrochilar faoliyati bilan tanishtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hududlarda faoliyat yuritayotgan baxshilar, sozandalar va hofizlarning ijodidan namunalar keltirish o'quvchilarda musiqiy merosga nisbatan yanada katta qiziqish uyg'otadi. Imkoniyat mavjud bo'lganda, san'atkorlar bilan uchrashuvlar tashkil etish yoki ularning ijrolarini namoyish etish ta'limning amaliy jihatini kuchaytiradi. Musiqiy uslublarni o'rgatishda taqqoslash metodidan foydalanish ham foydalidir. O'quvchilar Qashqadaryo–Surxondaryo vohasi musiqasini boshqa hududlarning musiqiy an'analari bilan solishtirish orqali ularning o'ziga xos jihatlarini aniqlashga harakat qiladilar. Bu esa musiqiy tafakkurning rivojlanishiga, tahliliy fikrlash qobiliyatining shakllanishiga va milliy musiqqa madaniyatining rang-barangligini anglashga yordam beradi. Darslarda milliy bayramlar, marosimlar va folklor an'analari bilan bog'liq musiqiy namunalarni o'rganish ham muhim natijalar beradi. Chunki musiqiy meros xalq hayotining turli jabhalari bilan chambarchas bog'liqdir. O'quvchilar kuy va qo'shiqlar orqali nafaqat musiqiy bilimlarni, balki xalqning turmush tarzi, urf-odatlar va madaniy qadriyatlari haqidagi tasavvurlarini ham boyitadilar. Bu esa ta'lim va tarbiya jarayonining uzviyligini ta'minlaydi hamda o'quvchilarning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo–Surxondaryo musiqiy uslublari xalqimizning boy madaniy merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularni musiqqa madaniyati darslarida samarali o'qitish o'quvchilarning estetik didini, musiqiy tafakkurini va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini rivojlantiradi. Tinglash, suhbat, amaliy ijro, interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ushbu musiqiy merosni o'quvchilarga chuqur va mazmunli o'rgatish imkonini beradi. Natijada yosh avlod milliy san'atimizni qadrlaydigan va uni kelajak avlodlarga yetkazishga intiladigan barkamol insonlar bo'lib shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov A. O'zbek xalq musiqasi tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
2. Rajabov I. Maqom asoslari. – Toshkent: Fan, 1992.
3. Qodirov R. O'zbek musiqqa folklori. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Matyoqubov O. An'anaviy ijrochilik san'ati. – Toshkent: Musiqqa, 2015.